



## Halima Xudoyberdiyeva lirikasida xalqona ohang

**Boliqulova Mehribon**

SamDCHTI talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolani mustaqillik davri adabiyoti yirik namayondasi O‘zbekiston xalq shoirasi Halima Xudoyberdiyeva lirikasi ruhida talqin qilingan.

**Kalit so‘zlar:** o‘zbek xalqi, mahr va vafo, muhabbat, vatan, milliy ruh, adabiy g‘oya, tahlil, talqin.

Mustaqillik davri she‘riyatida o‘zbek xalqiga xos bag‘rikenglik, hamjihatlik, sabr-toqat, mulohazakorlik, mehnat sevarlik, kelajakka ishonch, mardlik, donishmandlik, ilmga o‘chlik, to‘g‘rilik va axloqiy poklik singari milliy xarakter belgilari poetik tarzda aks ettiriladi. Bu xususiyat A.Oripov, E.Vohidov, A.Suyunov, U.Azim, O.Matjon, X.Davron va boshqa shoirlarning 90-yillardagi ijodida ayniqsa aniq namoyon bo‘ladi.

Mustaqillik davri she‘riyatida Halima Xudoyberdiyeva, Oydin Hojiyeva, Gulchehra Jo‘rayeva, Zulfiya Mo‘minova, Zebo Mirzayeva singari shoiralar ham faollik ko‘rsatdilar. Ular insoniy va ijodkorlik burchi, vijdon va sadoqat, vatanparvarlik va do‘stlik, axloq-odob, sevgi-muhabbat haqida qator dilbar asarlar yaratdilar. Shoiralar ijodida xotin-qizlar hayoti, ruhiyati, ular ongidagi o‘shish, o‘zgarishlar tasviri markaziy o‘rinda turadi. Ular mavzuni yoritishda ko‘pincha milliy xususiyatlar, milliy tarovat belgilaridan unumli foydalangan holda qalam tebratadilar. Shu tariqa o‘zbek ayollari fe‘l-atvor va dunyoqarashidagi ajoyib xislatlarni umumlashtirib, milliy xarakter belgilarini ochib beradilar. O‘zbekiston xalq shoirasi Halima Xudoyberdiyeva odatda hayot haqiqatini, tuyg‘ular-tug‘yonini milliy libosda ko‘rsata oladi. Shoiraning, “Vatan”, “Bular Vatan qorovullari”, “Xudo degan mamlakat”, “Ulug’ kun kelmoqda”, “Yangi yil jomini ishq bilan to‘ldir” kabi she‘rlarida lirik



qahramonning ruhiy olami, ona Vataniga, mehnatkash xalqni rozi qilish uchun qo‘lidan kelgan hamma ishni bajarishga tayyor ekanligini samimiyat bilan ifodalaydi.

Yelkam xalqim yelkasiga tegib turmog‘i uchun,  
Boshim xalqim ko‘lkasiga egib turmog‘i uchun.  
Unga qarshi nima kelsa yengib turmog‘i uchun,  
Mendan qay ish lozim bo‘lsa, barchasiga tayyorman.

Samimiylik shoiraning “Ona sadoqati va o‘g‘il armoni qissasi” asariga ham xos. Qissada sevgiga sadoqat va insoniy burch haqidagi teran poetik fikr, mahorat bilan kuylangan. Qissada tasvirlanishicha urush tufayli yosh beva qolgan Sayram kelin ko‘z ochib ko‘rgan yoriga sadoqat namunasini ko‘rsatadi. Erining frontda halok bo‘lgani to‘g‘risida “qoraxat” olgach, yosh kelinchak, “abadiy visol” deb biladi. Butun mehrini sevikli eridan yodgor bo‘lib qolgan yolg‘iz farzandiga bag‘ishlaydi. O‘g‘lini oq yuvib, oq tarab tarbiyalaydi. O‘g‘il voyaga yetib, uy-joyli va olti bolali ota bo‘lgach to‘satdan og‘ir dardga yo‘liqadi, farzandlari kamolini ko‘ra olmay, bevaqt dunyodan o‘tadi. U oxirgi daqiqalarda mushtipar, mehribon onasiga o‘z armonini bayon etadi.

Enam sen enadon eding yolg‘iz qiz,  
Ne uchun meni ham yolg‘iz o‘stirding.  
Birovga suyana olmadim, essiz,  
Seni ham hamisha g‘amboda ko‘rdim...  
Enajon, ne uchun tegmading erga,  
Bir o‘g‘il, hech yo‘qsa bir qiz bo‘lsaydi,  
Otamni - ku axir berganding yerga,  
Og‘am deb yig‘lashga bir qiz bo‘lsaydi,  
Bir yelka bo‘lsaydi suyanmog‘inga.



Halima Xudoyberdiyeva o'z asarida muhim hayotiy fikrni xalqona yo'lda ta'sirli qilib ifodalagan. Bunda u xalq og'zaki ijodiga xos uslubdan ustalik bilan foydalangan. Mustaqillik yillarida o'zbek she'riyatida uzoq va yaqin o'tmish haqida shuningdek, inson qadri, insonning aql-zakovati, turmush madaniyatini ko'tarish, tabiatni asrash, tabiat boyliklarini tejab-tergab, isrof qilmasdan foydalanish kabi mavzularda ham ko'plab she'r yozildi.

Shoira lirikasining xalqona ohangga yug'rilgan shakllarida vatanparvarlik, ona yurtga sadoqat, o'zbek xalqiga xos bo'lgan xususiyatlar, milliy ruh va adabiy g'oya shoirona tarzda bayon qilingan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Норматов У. Ижод сеҳри. Т., “Шарқ” нашриёт – матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2007, 352 б.
2. Mirzayev S. XX asr o'zbek adabiyoti. Т., “Yangi asr avlodi” 2005.
3. Расулов А.Бадийлик – безавол янгилик. Т., “Шарқ” нашриёт – матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2007, 336 б.
4. Худойбердиева Х. Йиллар нафаси. Т., “Шарқ” нашриёт – матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, Т., 2016, 127 б.